



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**07.00.06 – ARXEOLOGIYA IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2026

Annotatsiya:

Dastur 07.00.06 – Arxeologiya ixtisosligiga kiruvchilar uchun 2020-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar bo‘yicha tuzildi.

Tuzuvchilar:

Ergashev O.T.	–	SamDU, Arxeologiya kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xolmatov N.O.	–	SamDU, Arxeologiya kafedrasi professori, tarix fanlari doktori

Dastur Tarix fakultetining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

07.00.06 – Arxeologiya ixtisosligi – Qadimgi Turon ilk shaharlari hududlararo ma'naviy-ma'rifiy markazlar ekanligi. Buyuk Ipak yo'li va uning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni. Samarqand (Afrosiyob) shahrining insoniyat madaniyat tarixidagi o'rni. Mustaqillik davrida arxeologiya fani rivoji, istiqbollari. Janubiy O'zbekiston Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri ekanligi. Toshkent, Buxoro, Xiva shaharlarining qadimgi madaniyat markazlari sifatida dunyo tarixida tutgan o'rni. Paleolit makonlarini qazish, tadqiqot qilish usullari. Arxeologik manbalar asosida tarixiy jarayon va jamoalarning madaniyati hamda turmush tarzini ifodalash tamoyillari. Istibdod davrida arxeologiya fani yodgorliklarni tarixdan o'rganishdagi kamchiliklar va ajdodlarimiz madaniyat tarixini beg'ubor, odilona o'rganishi – istiqbol ne'mati ekanligi. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixini yaratishda arxeolog manbalarning ahamiyati. Arxeologiya tarix fanining tarkibiy qismi ekanligi. Arxeologiya fanining shakllanish tarixi. O'zbekistonda arxeologiya fanining taraqqiyoti. O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoalar tarixini o'rganishda erishilgan muhim yutuqlar. Zarafshon vohasida ilk madaniyat tariximizni o'rganishdagi asosiy yutuqlar va muammoviy vazifalar. Arxeologiya fanining asosiy manbalari. Insoniyat tarixini taraqqiyot bosqichlariga (davrlarga) bo'lishda arxeologik yondashish tamoyillari. Mamlakatimiz hududida ibtidoiy urug'doshlik davri tarixiga doir asosiy yodgorliklar. Mamlakatimiz hududidagi jez davriga oid muhim yodgorliklar va ularning o'rganilish tarixi. Insoniyat tarixida dastlabki ishlab chiqarish xo'jalik iqtisodiga o'tish jarayoni. Samarqand hududidagi ibtidoiy jamoalar makonlari va topilmalari. O'rta Osiyo miqyosida dastlabki o'troq sug'orma dehqonchilik xo'jaligiga o'tgan jamoalar yodgorliklari. Mamlakatimiz hududidagi ilk temir asriga oid asosiy yodgorliklar. O'zbekistonda o'rganilgan paleolit jamoalarining makonlari. Samarqand (Afrosiyob) shahri tarixi va uning jamoa madaniyat tarixida tutgan o'rni. O'rta Osiyoda feodal munosabatlarning barpo topishi haqidagi arxeologiya yodgorliklari. O'rta Osiyoning ilk shaharlariga doir muhim yodgorliklar (Oltintepa, Sopolli, Jarqo'ton va boshqalar). Qadimgi Xorazm tarixini o'rganishda erishilgan arxeologik yutuqlar. Qoyatosh suratlari – ajdodlarimiz san'ati namunalari ekanligi. O'rta Osiyoning cho'l-dasht mintaqalarida yashagan ibtidoiy va qadimgi jamoalar madaniyati hamda asosiy yodgorliklar majmualari. Kaltaminor madaniyati. Atoqli arxeolog D.N.Lev xizmatlari. Atoqli arxeolog, tarixchi, etnograf Y.G'.G'ulomovning hayot yo'li va uning fan taraqqiyotidagi xizmatlari. Arxeologik tadqiqot tamoyillari va uslublari. Markaziy Osiyodagi qardosh respublikalarda arxeologiya sohasida erishilgan asosiy yutuqlar. Ustyurtda (KKAR) erishilgan arxeologik yutuqlar. Arxeologik tadqiqotlarda qardosh

respublikadagi olimlar bilan hamkorlik munosabatlarining muhimligi. Arxeologik tadqiqotlarda tabiiy fanlarning ishtiroki va ahamiyati. Arxeologik tadqiqotlarda qardosh respublikalari olimlari bilan hamkorlik munosabatlarining muhimligi. Arxeologik tadqiqotlarda tabiiy fanlarning ishtiroki va ahamiyati. O‘zFA Arxeologiya instituti qadimgi shaharlar tarixini o‘rganishdagi so‘nggi yutuqlari. Janubiy O‘zbekistonda (Surxondaryo, Qashqadaryo) tariximizni o‘rganishda erishilgan yangi tadqiqotlar tahlili. O‘rta Osiyo arxeologiyasi tarixshunosligiga doir muammolar. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab mazkur hududda kechgan davlatchilik jarayonlari hamda o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganish dolzarb masala darajasiga ko‘tarildi. Xalqimizning o‘z tarixi va milliy qadriyatlarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib, ajdodlarimizning turli moddiy ma‘naviy yodgorliklarni tadqiq etish ishlari qo‘llab quvvatlanmoqda. O‘zbekiston Respublika rahbariyati bu borada tashabbuskorlik ko‘rsatib, tarixchi, arxeolog va sharqshunos olimlar oldiga xalqimizning qadim tarixini qaytadan, haqqoniy ravishda yaratish vazifasini qo‘ydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda “O‘zR FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi. 1998-yil 11-avgustda bo‘lib o‘tgan akademik Yahyo G‘ulomov nomidagi “O‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganish” Respublika ilmiy seminarida tayyorlangan “O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi kontseptsiyasi” loyihasi ushbu masalaga jiddiy e‘tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Shuningdek, 2016-yil 30-dekabrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning etakchi olimlari, ziyolilari, akademiklari, bir so‘z bilan aytganda ilm ahli bilan uchrashib, ular bilan ilm-fanni yanada rivojlantirish, fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish borasidagi ishlari bu boradagi sezilarli qadam bo‘ldi.

Zarafshon havzasida o‘rganilgan paleolit va neolit davri jamoalariga doir yodgorliklarning o‘rganilish tarixi va ahamiyati. Davlat arbobi, buyuk sarkarda Amir Temur davrida Samarqand va uning rivojlanishi. Samarqand – jahon sivilizatsiyasining qadimgi markazlaridan biri ekanligi. Samarqand davlat universitetining ajdodlarimiz tarixini o‘rganishdagi hissasi. Yangi arxeologik tadqiqotlar natijalari tahlili. Teshiktosh g‘orining ahamiyati. Ko‘ktepa topilmalari va ahamiyati. Afrosiyob shaharchasi tarixi. Y.G‘.G‘ulomovning tariximizni o‘rganishdagi xizmatlari. Sopolli madaniyati haqida tushuncha. Buxoro shahrini arxeologik o‘rganish tarixi. Shahrisabz – 2700-yil. Zarafshon vohasida qadimgi shaharlar arxeologiyasi. O‘zbekistonda yangi arxeologik kashfiyotlar. Zarafshon vohasida paleolit yodgorliklar. Tojikistonda Arxeologiyaning rivoji. Turkmanistonda arxeologiyaning rivoji. Farg‘ona vohasida yangi arxeologik tadqiqotlar. Bronza davrida dafn marosimlari. Saklar va massagetlar. O‘rta Osiyoda feodal munosabatlarning barpo topishi. Afrosiyob. Kulolchilik. Buyuk

Ipak yo'lidagi shaharlar. Qadimgi Xorazm tarixi. Xorazmning sug'orilishi tarixi. Zamonbobo madaniyati. Bronza davrida dehqonchilik madaniyati. Cho'st madaniyati. Toshkent vohasi arxeologiyasi. Buxoro me'morchiligi. Somoniylar davri yodgorliklari. Selengur makoni va ahamiyati. Muster davriga xarakteristika. Zirabuloq. Qo'tirbuloq makonlari. Neolit davrining xususiyatlari. Sazag'on madaniyati. Mezolit davriga xarakteristika. Tojikiston o'rta paleoliti. O'rta Osiyo muster davri yodgorliklari. So'nggi paleolit davriga xarakteristika. Zarafshon vohasi so'nggi paleoliti. Mezolit davriga xarakteristika. Machay g'ori va ahamiyati. Omonqo'ton, Ko'lbuloq makonlari. Ibtidoiy davrda ma'noviy turmush. Ibtidoiy davrda madaniy aloqalar. Sazag'on madaniyati. Damdam chashma makoni. Turkmaniston mezoliti. Neolit davrida dastlabki dehqonchilik. Neolit davrida ijtimoiy tuzum. Kaspiybo'yi tosh asri. Eneolit davrida ijtimoiy munosabatlar. Quldorlik va feodal davri arxeologiyasi.

O'rta Osiyo arxeologiyasi fani bo'yicha:

Markaziy Osiyo arxeologiyasining o'rganilishi tarixi. Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. Arxeologik materiallar. Rus va xorijiy arxeolog va sharqshunoslarning taraqqiyotlari. Sobiq ittifoq davrida Markaziy Osiyo arxeologiyasining taraqqiyoti, uning yutuqlari va kamchiliklari. Markaziy Osiyo arxeologiyasi mustaqillik davrida. O'rta Osiyo va Qozog'iston qadimgi paleoliti. O'rta Osiyoda saqlangan quyi paleolit davriga oid asosiy manzilgohlar: Selungur, Ko'lbuloq, Lohuti, Qorator, Ustyurt va Mang'ishlok topilmalari. Janubiy va Markaziy Qozog'istonda qo'lga kiritilgan oxirgi topilmalar. O'rta Osiyo va Qozog'iston o'rta paleolit davrida. O'rta pleystosen davri xususiyatlari va tabiiy jarayonlar mustye davriga oid asosiy manzilgohlar: Teshiktosh, Xo'jakent, Janubiy Farg'ona, Obiraxmat, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Ko'lbuloq, Og'zichik Semiganch, Jarqo'ton, Omonqo'ton, Qopchig'ay, Georgiyev do'ngligi, Yesen va boshqalarning tavsifi. O'rta Osiyo va Qozog'iston so'nggi paleolit davrida. So'nggi pleystosen iqlimi va tabiiy sharoitning o'zgarishi. O'rta Osiyodagi yuqori paleolit davri yodgorliklari: Samarqand, Xo'ja Manzil, Xo'ja Yaganja, Semiganch, Bo'zsuv, Tossor, Qorasu va boshqalar. O'rta Osiyoda antropogenez va sapiyenizasiya jarayoni. O'rta Osiyo va Qozog'iston mezolit davrida. Mezolit davrida yangi ekologik sharoitning vujudga kelishi. Golosen davri xususiyatlari. Mezolit davriga oid asosiy manzilgohlar. O'rta Osiyo va Qozog'iston neolit davrida. Ekologik sharoit. O'rta Osiyoning janubida o'troq dehqonchilikka asoslangan Joytun madaniyatining shakllanishi va uning xususiyatlari. Kaltaminor madaniyati manzilgohlari, Jebel madaniyati. Tog' mintaqalarga xos madaniyatlar: Sazag'on va Hisor madaniyatlar va ularga oid manzilgohlar bayoni. Etnogenez masalalari. Eneolit davri arxeologiyasi. Ishlab chiqarish xo'jaligi ilk shakllari davri arxeologiyasining asosiy muammolari. Chorvachilik va dehqonchilik mehnati

natijasida qo'shimcha mahsulotning hosil bo'lishi. Uning birinchi sivilizasiyalarning shakllanishidagi ijtimoiy ahamiyati. Ijtimoiy hayotda boshqaruv strukturalarining taraqqiyoti. G'oyaviy hayot tizimlari va ibodatxonalar xo'jaliklarining shakllanishi. Anov – Namazgoh madaniyati. Girkaniya eneolit davrida. Sarazm madaniyati. Zarafshon daryosining yuqori oqimida Sarazm madaniyatining o'rganilishi. Bronza davri. Janubiy Turkmanistonda bronza davri boshlanishining xronologiyasi. Asosiy yodgorliklar. Marg'iyona bronza davrida. Quyi Murg'ob sohillarini o'zlashtira boshlashi. Ilk shahar turidagi manzilgohlarining genezisi masalalari. Gonurdepa manzilohi ilk shahar sifatida. Sopolli – Dashli madaniyatlari. Sopolli – Dashli madaniyati yodgorliklarining ochilib tadqiq etilishi. Baqtriyaning bronza davriga oid yodgorliklarining xronologiyasi va davrlashtirilishi. Sumbar madaniyati. Janubiy Turkmaniston bronza davri yodgorliklarining xronologiyasi va davrlashtirilishi. Zamonbobo manzilgohi. Markaziy Osiyo dasht mintaqalari bronza davrida. Bronza davri chorvador aholisining madaniyatlari. Ilk temir davri xususiyatlari. Ilk temir davri o'troq madaniyati. Baqtriya va Marg'iyona o'troq dehqonchilik madaniyati. O'rta Osiyoda mil. avv. II mingyillik oxiri I mingyillik boshlaridan etnik – madaniy jarayonlar. Sherabod vohasidagi Kuchuktepa qo'rg'oni. Tillatepa ibodatxonasi. Tillatepadagi otashparastlik qoldiqlari. Avestoda qayd etilgan otashga sig'inish rasmining ilk namunasi. Yozdepa qo'rg'oni, arxeologik komplekslar. Yozdepaning vayron bo'lishi sanasi. Yozdepa va O'rta Osiyo janubiy qismining o'troq dehqonchilik madaniyati xronologiyasining muammosi. Farg'ona vodiysida Chust madaniyatining ixtiro etilishi va o'rganilishi. Chust madaniyati xo'jaligi. Toshkent vohasining Burgulyuk madaniyati. Tuyabo'g'iz qishlog'i. Arxitektura, arxeologik komplekslar. Ilk temir davriga oid Farg'ona va Choch madaniyati axolisining etnik mansubligi muammosi. Samarqand va Qashqadaryo voxalaridagi so'nggi yillarda olib borilgan qazuv ishlarining natijalari. Ilk temir davri chorvador xalqlari madaniyatlari. Ko'chmanchilik xo'jaligiga o'tish va urbanizasiya jarayonlari ijtimoiy va madaniy xayotdagi natijalari. Ko'chmanchi xalqlari davlatchiligi, Ko'chmanchilar tuzgan imperiyalar. Markaziy Osiyoda turli sak xalqlarining madaniyatlari. Qadimgi davri ko'chmanchilarining janubiy voxalarga kira kelishlari. Antik davri arxeologiyasi. Parfiya va Marg'iyona yodgorliklari. Ko'xna Niso – Arshakiylar qarorgohi. Qadimgi Baqtriya yodgorliklari. Yunon – Baqtriya ellin madaniyatining Markaziy Osiyodagi markazi. Qadimgi So'g'd yodgorliklari So'g'd o'lkasi va uning eng birinchi urbonistik markazlari. Afrosiyob, Yerqo'rg'on. So'g'd madaniyatining taraqqiyotida ellinizm ta'siri. Arxitektura, kulolchilik, tasviriy san'at. Qadimgi Xorazm yodgorliklari. Xorazm voxasi eradan avv. III – I asrlar madaniyatining qiyofasi. Tuproqqal'a va Xorazm moddiy madaniyati alomatlari. Qadimgi Choch va Farg'ona yodgorliklari. Qadimgi Choch

o'lkasi, unda kulturogenez jarayonlari. Qanqa, Shohruxiya ko'hna shaxarlari, Farg'ona vodiysi. O'troq va qo'chmanchi xalqlarining madaniy aloqalari. Farg'ona vodiysi urbanizasiya jarayonlari. O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar davri yodgorliklari. Baqtriya va Xorazm antik davri madaniyatlarining inqirozga uchrashi. Qasrlar me'morchiligi. Qovunchi, O'tror – Qorator va Jettisar madaniyatlari vakillarining So'g'dga tarqalishi. Sog'd ilk o'rta asrlar davri madaniyati xususiyatlari, uning boqiy mafkuraviy yuksalishi. Markaziy Osiyo o'rta asrlar davri madaniyati. IX – XII asrlarda Markaziy Osiyodagi shahar madaniyati taraqqiyoti. Choch va Jettisuv o'lkalarining yangi shaharlari. Islom mafkurasining moddiy madaniyat taraqqiyotiga ta'siri. Islom davri shahar madaniyatining standartli diniy arxitektura. Savdo – sotiq rivojlanishi va Buyuk Ipak yo'li Chingizxon yurishlarining oqibati. Amir Temur va Temuriylar davri va madaniyat taraqqiyotining yutuqlari. So'nggi o'rta asr muammolari va madaniy hayot. Kulturogenez jarayonlari va madaniy meros ahamiyati. Madaniyat taraqqiyotining rivojlanish yo'llari. Madaniy transformasiya shakllari. Madaniy integrasiya voqiealari. Madaniy meros – muhim tarixiy manba.

Inson evolyutsiyasi va old tarix fani bo'yicha:

Inson evolyutsiyasi va ilk tarix fan sifatida. Inson evolyutsiyasi va ilk tarix fanining predmeti va vazifalari. Antropologik davrlashtirish va xronologiya. Inson evolyutsiyasi va ilk tarix fanining rivojlanish tarixi. Tadqiqot ko'lamining o'sishi, uning bosqichlari. Inson evolyutsiyasi va ilk tarixning o'quv rejasidagi fanlar bilan aloqadoligi.

Odam va uning ajdodlarining hayvonot dunyosidagi o'rni. Primatlarning asosiy evolyusion bosqichlari. Gominidlar evolyusiyasining ilk bosqichi. Avstrolopiteklar. Avstrolopiteklar va ularning turmush tarzi. Markaziy va Janubiy Afrikadan topilgan paleantropologik topilmalar. Avstrolopiteklar to'g'risidagi yangi antropogenez nazariyalar. Sharqiy Afrikadagi paleoantropologik topilmalar. Olduvay madaniyati. Davrlashtirish va xronologiya. O'rganilish tarixi. Eng qadimgi odamlarning vujudga kelishi (Homo). Afrika va Yevrosiyo qit'alaridan topilgan paleoantropologik topilmalar. Zamonaviy qiyofadagi odamning vujudga kelishi va antropogenez jarayoning tugallanishi (Homo sapiens). Pleystosen davrining preodizatsiyasi va umumiy tavsifi. Afrika va Yevrosiyoqadan topilgan antropologik topilmalarning tahlili. Homo sapiensning vujudga kelgan joyi va vaqti. Mono va polesentrizm nazariyalari. Teshiktosh topilgan antropologik topilmalar. Irqlarning vujudga kelishi. Davrlashtirish va xronologiya. O'rganilish tarixi.

Odamning vujudga kelishining ijtimoiy aspektlari. Sosiogenezning ilk bosqichi. Zamonaviy odam va evolyusiya. Zamonaviy antropologik tiplarning tarqalishi. Migrasiya va odamlar migrasiyalari.

Numizmatika fani bo'yicha:

Numizmatika asoslari fani va uning vazifalari. Numizmatikaning paydo bo'lishi va uning fan sifatida rivojlanishi. O'zbekistonda numizmatika fanining shakllanishi va rivojlanishi. O'zbekiston numizmatikasining rivojlanishida o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan olimlar: O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda qadimiy tangalarning o'rni. Tangalar paydo bo'lgunicha turli xalqlarda ayrboshlash vositasi bo'lib xizmat qilgan narsalar. Tanga sifatidagi ayrboshlash vositasi zarurati paydo bo'lishining asosiy sabablari.

Qadimgi Yunoniston va Rim tangalari. Eng qadimgi davrdagi Yunonistonda zarb qilingan oltin va kumush qotishmasidan iborat tangalar. Tangalarda yozuvlarning paydo bo'lishi. Yunoniston tangalarining ikonografiyasi. A.Makedonskiy tomonidan zarb qilingan tangalar. Salavkiy shohlarining tangalari. Yunoniston tangalari-noyob san'at durdonalari sifatida.

Qadimgi Rimda zarb qilingan tangalar va ularda tasvirlangan rasmlar. Mis tangalar-qadimgi Rim tangalarining asosi. Rim tangalariga qadimgi Yunoniston tangalarining ta'siri. Rimda kumush tangalarni zarb qilishning yo'lga qo'yilishi.

Qadimgi Sharq tangalari. Xitoy tangalari. Qadimgi Xitoydagi ilk quyma tangalar: pichoq-tangalar, belkurak-"bi"-tangalar, omoch-"bu"-tangalar va o'rtasi kvadrat teshikli dumaloq tangalar. Tangalarda yozuvlarning paydo bo'lishi. Mavzu tarixshunosligi. Ahmoniylar saltanati. Axmoniylar saltanatida tanga pullarni paydo bo'lishida yunon tangalarining o'rni. Doro I tomonidan tanga pullarning zarb qilinishini yo'lga qo'yilishi. Oltin tanga-darik, kumush tanga-sikllarni bozor muomalasiga chiqarilishi. Ahmoniy shahanshohlari tangalarining ikonografiyasi. Tangalarning vaznlari. Saltanat iqtisodiy hayotini o'rganishda tangalarning ahamiyati. Tan tangalarining ko'rinishi. Sun sulolasi hukumronligi (960-1127) davrida 2, 3, 5 va 10 syan qiymatidagi tangalarning muomalaga chiqarilishi.

Eron sosoniylari va sosoniy kushonshoxlar tangalari. Sosoniylar saltanati. Sosoniy shahanshohlari tomonidan saltanatda tangalar zarb qilinishining yo'lga qo'yilishi. Sosoniylar tomonidan qabul qilingan tanga qiymatlari va vazn sistemalari. Oltin tanga-dinor, kumush tanga-draxma, mis tanga-tetradraxma. Sosoniylar tangalarining ikonografiyasi. Ardasher I, Shopur I, Shopur II, Varaxran II, Feruz tangalari.

Parfiya saltanati. Arshakiy shohlari tomonidan zarb qilinga ilk Parfiya tangalari. Parfiya tangalarining ikonografiyasi. Parfiya tangalarining ikonografiyasini qaror topishida yunon tangalarining o'rni. Mustaqil Parfiya davlati kuchayib borishining tangalarda o'z ifodasini topishi.

O'zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi tangalar va ularning o'lkada tovar-pul munosabatlarini shakllantirishdagi o'rni. Yunon-Baqtriya tangalarining asosiy o'lchov birliklari: tetradraxma, draxma, obol. Yunon-Baqtriya tangalarining

ikonografiyasi-tasvirlar majmui. Yuejiylar davridagi Baqtriya tangalari. Kushonlarning ilk tarixini yoritishda yuedjiy hokimlari tomonidan zarb qilingan tangalarning ahamiyati. Geray tangalari. Buyuk Kushon shohlari tomonidan zarb qilingan tangalar.

So'g'diyonadan topilgan eng qadimgi tangalar. Kitob va Buxoro xazinalari. Mahalliy So'g'diyona tangalarining qaror topishi. "Girkad" tangalari.

Qadimgi Xorazmda tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi. Yevkratid tangalariga taqlid qilib zarb qilingan tangalar. Xorazm tangalarini zarb qilinishining yo'lga qo'yishi va ularning ikonografiyasi. Tanga pullar zarb qilishni yo'lga quygan hududlarning kengayishi. III-IV asrlardagi Kesh, Choch va Buxoro tangalari. Buyuk ipak yo'li va uning Markaziy Osiyo pul xo'jaligiga ta'siri. O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda qadimgi tangalarning ahamiyati.

XI-XIII asrlarda Movarounnaxr tangalari. Mavzu tarixshunosligi. Qoraxoniylar davlati. Qoraxoniylar davrida zarb qilingan tangalar va ular ko'rinishidagi o'zgarishlar. XI-XIII asr boshlaridagi tangalarning o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda ahamiyati.

XVI-XVIII asrning birinchi yarmida zarb qilingan tangalar. Mavzu tarixshunosligi. Shayboniylar davlati. Shayboniylar tomonidan tamg'alangan temuriylar tangalari. Shayboniylar zarb qilgan oltin, kumush va mis tangalar, ularning ko'rinishi va vazni. Joniylar tomonidan zarb qilingan kumush va mis tangalar. Tangalar shaklining yanada buzilishi va zarb qilish sifatlarining pasayishi. Tangalardagi yozuvlar uslubi. XVIII asrning 2-yarmi – XX asrning oxirida zarb qilingan xonliklar tangalari.

Geoarxeologiya fani bo'yicha:

Geoarxeologiyaning kelib chiqishi va uning taraqqiyoti, geoarxeologiya atamasining vujudga kelishi va fan sifatida shakllanishi. Geoarxeologiya qanday ma'noni anglatadi? Geoarxeologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Geoarxeologiya mos so'zmi? Geoarxeologiya atamasidan foydalanishning qanday farqi bor? Intensiv geoarxeologiya. Geoarxeologiya qayerga mos keladi? Fanning dolzarb masalalari. Yotqiziqlarning turlari, ularning xususiyatlarini tushunish va tasvirlash. Yotqiziqlarning tarkibi, daryo va dengizorti yotqiziqlari va cho'kmalarning tuzilishi. Kimyoviy yotqiziqlar. Organik moddalarning yotqiziqlar bilan bog'liqligi. Arxeologik yotqiziqlarga doir bilimlar. Stratigrafiya-yer tarixi ustida ishlash. Yer va uning shakllarining rivojlanishida turli materiallarning izchil ko'rinishi. Stratigrafiyada qatlamlarning adabiy ta'rifi. Magmatizm ta'siri. Iqlim va dengiz sathining o'zgarishi. Metamorfizm. Cho'kindi jinslarning tarixiy kelib chiqishi. Organik evolyusiya haqida bilimlar. Tuproqning geoarxeologiyadagi o'rni. Tabiatda va arxeologiyada tuproqning ahamiyati. Inson va boshqalarning tuproqqa ta'siri. Besh xil tuproq omili. Yon bag'irlar. Soylar. Ko'llar va

botqoqliklar. Qiyalik yotqiziqlar. Tepalik yon bag'irlar va qiyalikdagi yotqiziqlarning turli arxeologik yodgorliklarni saqlab qolishdagi o'rni. Tepalik yon bag'irlar va qiyaliklarning arxeologiya bilan bog'liq jihatlari.

Daryo va ko'llarning geoarxeologik omillari. Yopiq harakatsiz soylarga ko'plab suv oqimlarining quyilishi. Nam yerlar va ko'llarning hosil bo'lishi. Ko'ldagi cho'kindi jinslarni hosil bo'lishi. Daryo va ko'llarning assosiy aspektlariga bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan geoarxeologik jihatlari.

Yer yuzi va unga yoqin bo'lgan joylarda atmosfera. Suv organizmlar ta'sirida tog' jinslarining emirilish. Tog' jinslari tuzilishining kimyoviy o'zgarish jarayonlari. Relyef hosil qiluvchi omillar va relyefning geoarxeologik jarayonlari bilan o'zaro aloqalariga bog'liq hodisalar.

Arxeologiyada GIS fani bo'yicha:

Arxeologiyada GIS fan sifatida. Arxeologiyada GIS fanining predmeti va vazifalari. Arxeologiyada GIS fanining rivojlanish tarixi. Tadqiqot ko'lamining o'sishi, uning bosqichlari. Arxeologiyada GISning o'quv rejasidagi fanlar bilan aloqadorligi. GIS yoki Geoaxborot tizimining arxeologik tadqiqotlarda qo'llanishi.

Xaritalar xaqida tushuncha. Xaritalar turlari: geografik, siyosiy, tematik, yodgorliklar xaritalari va kokazo. Koordinatalar tizimi xaqida ma'lumot. Geografik koordinatalar, proyeksiyali koordinatalar. Tarixiy xaritalardagi obyektlarni geografik xaritalar bilan bog'lash. Arc Catalog va uning funksiyasi, Arc Reader Arc Publisher va uning funksiyasi. Arc Scene va Arc Globe. Sheyp fayllar va ular haqida ma'lumotlar. Arc Catalog dasturida sheyp fayllar yaratish. Yaratilgan sheyp fayllarni kooordinatalar tizimi bilan bog'lash. Arc GIS dasturida taxrirlash. Georeferencing asbobi va uning bandlari haqida ma'lumot. Arc GIS dasturida qatlamlar ustida ishlash. Qatlamlar va ular haqida ma'lumotlar. Ma'lumotlar freymi va ular haqida ma'lumot. Yaratilgan qatlamlarni Arc GIS dasturida yuklash. Ma'lumotlarni qatlamlar sifatida saqlash. Nuqtali, chiziqli va maydonli sheyp fayllar. Xaritada nuqtali, chiziqli va maydonli obyektlarni yaratish. Xaritada obyektlar uzunligi va maydon o'lchamlarini aniqlash. Selection asbobi va yodgorliklarning xususiyatlariga ko'ra aniqlash. Arc Toolbox asboblari va ularning funksiyalari. Simvollar ustida ishlash. Arc GIS dasturida ma'lumotlar jadvalini yaratish. Ma'lumotlar jadvalida ustunlar va qatorlarda yodgorliklar haqida kiritiladigan ma'lumotlar. Arc GIS va Excel. Excelda yaratilgan ma'lumotlarni Arc GIS dasturiga yuklash. Arc GIS dasturida yaratilgan ma'lumotlarni kompyuter xotirasida saqlash va chop etish. Arxeologik yodgorliklarning xaritada joylashish nuqtasi asosida jadval yaratish va uni Arc GIS hamda Google Earth formatlarida saqlash.

GIS dasturi yordamida arxeologik yodgorliklar xaritasini tuzish. Xaritani Layout View ko'rinishiga o'tkazish. Google Earth dasturi haqida umumiy

ma'lumot. Arc GIS va Google Earth dasturlarining o'zaro bog'liqligi. Yodgorliklarning xaritada uzunligi va kengligi kesishmasi asosida uning Google Earth dasturida joylashish nuqtasini aniqlash. Google Earth dasturida yodgorliklar xaritasini Arc GIS dasturi uchun rastr ma'lumot sifatida saqlash. Rastr ma'lumotni Vektor ma'lumotga aylantirish. Google Earth dasturida olingan yodgorliklar xaritasini koordinatalar tizimi bilan bog'lash. Yodgorlik xaritasidagi elementlar ustida ishlash.

Arxeologiya fani bo'yicha:

Arxeologiya fani tasnifi. Arxeologiya fani maqsadi va vazifalari. Arxeologiya fani ish uslubi va tadqiqot turlari. Arxeologik qidiruv haqida. Arxeologik sinov haqida. Arxeologiya va tarix fanining o'zaro aloqadorligi. Arxeologiya manbalari. Arxeologiya tarixi. Arxeologik qazish ishlari. Suv osti arxeologiyasi. Arxeologiya – umuminsoniyat tarixiga xizmat qiladigan fan. Arxeologiya – xalqaro fan. Arxeologiya fani to'g'risidagi ilmiy bilimlarning shakllanishi. Birinchi ilmiy arxeologik tadqiqotlar. Arxeologiya fani ish uslubi va tadqiqot turlari. Zamonaviy arxeologiya fani taraqqiyoti. Arxeologik kuzatish. Arxeologik madaniyat. Arxeologiya yodgorliklari. Arxeologiya fanining Yevropada paydo bo'lishi tarixi.

Arxeologiyani XVIII asr oxiri XIX asrdagi rivoji. Rossiyada arxeologiya fanining paydo bo'lishi. Gerkulanum va Pompeyning arxeologik qazish uslublarini tushinishda manba ekanligi. XIX asrning oxirida Turkistonda rus va mahalliy o'lkashunoslarining dastlabki arxeologik izlanishlari. O'zbekistonda arxeologiya fanining shakllanishi. O'zbekiston mustaqilligi davrida arxeologiya fani. O'zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan 1917-yilgacha bo'lgan davr arxeologiyasi. Turkiston Arxeologiyasi havaskorlari to'garagi. O'zbekistonda 1917-1938-yillar arxeologiyasi. O'zbekistonda 1938-1945-yillar arxeologiyasi. Yahyo G'ulomovich G'ulomov faoliyati. O'zbekistonda 1945-1991-yillar arxeologiyasi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining tashkil etilishi.

O'zbekiston-Fransiya-Sug'diyona arxeologik ekspeditsiyasi faliyati. O'zbekiston-Polsha xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi faoliyati. Arxeologiya fanida tarixiy fanlarning o'rni. Arxeologiya va tarixiy fanlar. Arxeologiya va numizmatika. Arxeologiya va antropologiya. Arxeologiya va etnografiya. Arxeologiya va etnologiya. Arxeologiya va geraldika. Arxeologiya va gliptika. Arxeologiya va dinlar tarixi. Arxeologiya va harbiy san'at tarixi. Arxeologiya va epigrafika. Arxeologiya va toponimika. Arxeologiya va sfragistika.

Tosh asri (paleolit, mezolit, neolit). Paleomatall davri (eneolit, bronza, temir). Tarixiy manbalarni arxeologik jihatdan davrlash (xronologiya, davrlashtirish, dendroxronologiya). Insoniyat tarixining davrlarga bo'lishning

asosiy tamoyillari (Ibtidoiy davr, qadimgi davr, oʻrta asrlar tarixi, yangi va eng yangi zamon tarixi). Mustaqillik davrida arxeologiya fanining asosiy vazifalari (Arxeologik tadqiqotlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalqaro ilmiy konferensiyalar). Arxeologik yodgorliklarning muhofazasi (“Arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida”gi qaror). Arxeologik dala tadqiqoti (shurf, ekspeditsiya, qidiruv, GIS, GAT). Arxeologik qidiruv (GIS, GAT). Arxeologik ekspeditsiya (Ruxsatnoma, ekspeditsiya tarkibi, uslubiy qoʻllanmalar). Arxeologiya va mineralogiya. Arxeologiya va topografiya. Arxeologiya va gidrogeologiya. Arxeologiya va paleobotanika. Arxeologiya va paleozoologiya. Arxeologiya va biologiya. GIS (GAT)ning arxeologiyada qoʻllanilishi.

Arxeologik davrlashtirish. Paleolit davri texnologik kashfiyotlari. Mezolit, neolit va eneolit davri texnologik kashfiyotlari. Jez va temir davri texnologik kashfiyotlari. Arxeologiya va xronologiya. Toshga ishlov berishning levallua texnikasi. Toshga ishlov berishning retushlash usuli. Muste davrining texnologik kashfiyotlari. Soʻngi paleolit davri texnologik kashfiyotlari. Mezolit davri texnologik kashfiyotlari. Neolit davri texnologik kashfiyotlari. Eneolit davri texnologik kashfiyotlari. Bronza davri texnologik kashfiyotlari. Temir davri texnologik kashfiyotlari. Kishilik jamiyatining moddiy madaniyati davrlarida qilingan texnologik kashfiyotlar (paleolit, mezolit, neolit, eneolit). Kishilik jamiyatining moddiy madaniyati davrlarida qilingan texnologik kashfiyotlar (bronza davri, ilk temir davri). Kishilik jamiyatining moddiy madaniyati davrlarida qilingan texnologik kashfiyotlar (antik davr, oʻrta asrlar). Jahonning eng yirik arxeologiya ilmiy markazlari.

Qadimgi tosh davri makonlari. Qishloq, shahar, ibodatxona arxeologiya yodgorliklari. Qabr – qoʻrgʻonlar va ularning turlari. Harbiy istehkomlar arxeologik manba sifatida. Yoʻllar va boshqa turdagi arxeologik yodgorliklar. Qoyatosh rasmlari – arxeologik manba sifatida. Qishloqlar arxeologik manba sifatida. Shaharlar arxeologik manba sifatida. Qadimgi ibodatxonalar arxeologik manba sifatida. Qalʼa, qoʻrgʻon va mudofaa devorlari arxeologik manba sifatida. Karvonsaroylar arxeologik manba sifatida. Sardobalar arxeologik manba sifatida. Hammomlar arxeologik manba sifatida. Geologik, urning shakllanish davri boʻlgan uchlamchi va toʻrtlamchi davr qatlamlarida uchraydigan paleozoologik, paleobotanik topilmalar. Paleolit davri yodgorliklari va ularning tarixni oʻrganishdagi ahamiyati. Qadimgi qabr va qoʻrgʻonlar va ularning tarixni oʻrganishdagi ahamiyati. Qadimgi qishloqlar, harbiy istehkom va ularning tarixni oʻrganishdagi ahamiyati. Qadimgi ibodatxonalar, mudofaa devorlar, shaharlar va ularning tarixni oʻrganishdagi ahamiyati. Qadimgi yoʻllar, karvonsaroylar va ularning tarixni oʻrganishdagi ahamiyati. Paleolit va mezolit davri Oʻrta Osiyo

hududida insoniyat tomonidan qilingan moddiy madaniyat yangiliklari. Neolit va eniolit davri O'rta Osiyo hududida insoniyat tomonidan qilingan moddiy madaniyat yangiliklari. Bronza va ilk temir davri O'rta Osiyo hududida insoniyat tomonidan qilingan moddiy madaniyat yangiliklari. Antik va o'rta asrlar davri O'rta Osiyo hududida insoniyat tomonidan qilingan moddiy madaniyat yangiliklari. Paleolit va mezolit davri O'rta Osiyo hududida insoniyat tomonidan qilingan moddiy madaniyat yangiliklari. Neolit inqilobi va uning mohiyati. O'rta Osiyo bronza va ilk temir davri dehqonchilik moddiy madaniyati.

O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar o'tkazish tartibi. O'zbekistonda xalqaro arxeologik tadqiqotlar o'tkazish tartibi. Xalqaro ilmiy shartnomaning asosiy bndlari. O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar o'tkazish qoidalari. "Ruxsatnoma" olish tartibi. Xalqaro ilmiy shartnomaning asosiy bndlari. Xalqaro arxeologik hamkorlik va uning huquqiy asoslari. alqaro ilmiy shartnomaning asosiy qismlari ayting. Xalqaro arxeologik shartnomani bekor qilish tartiblari. Qadimgi Baqtriya arxeologiyasi tarixshunosligi. Qadimgi So'g'd arxeologiyasining o'rganilish tarixi. Choch (Toshkent viloyati) arxeologiyasi. Toshkent shahrining 2000-yilligining ilmiy-arxeologik asoslari. Qadimgi Farg'onada arxeologik tadqiqotlar tarixi. O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar o'tkazuvchi muassasallar. "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish" to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi Madaniy meros obyektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish. Madaniy meros obyektlarini asrash va ulardan foydalanish. Moddiy madaniy meros obyektlariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish.

Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar. Ulug'bek observatoriyasining arxeologik o'rganilishi. Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining ochilishi tarixi (S.P.Tolstov). Eski Termizning o'rganilishi tarixi (M.E.Masson). Yahyo G'ulomov – birinchi o'zbek arxeologi. Moddiy arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish. Arxeologiya fani predmeti, maqsadi va vazifasi, tadqiqot obyekti. O'zbekistonda 1917-1938-yillar arxeologiyasi va uning ahamiyati. O'zbekistonda 1938-1945-yillar arxeologiyasi va uning ahamiyati. Yahyo G'ulomovich G'ulomovning o'zbek arxeologiyasidagi o'rni. O'zbekistonda 1945-1991-yillar arxeologiyasi va uning ahamiyati. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining tashkil etilishi va uning faoliyati. O'zbekiston-Fransiya-Sug'diyona arxeologik ekspeditsiyasi faoliyati va uning natijasi. O'zbekiston-Germaniya xalqaro ekspeditsiyasi faoliyati va uning ahamiyati. O'zbekiston-Italiya-Yponiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi faoliyati va uning ahamiyati. O'zbekiston-Polsha- AQSH xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi faoliyati va uning ahamiyati. O'zbekiston-Rossiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi

faoliyati va uning ahamiyati. “Turkiston havaskor arxeologlari to‘garagi” faoliyati va uning o‘zbek arxeologiyasidagi o‘rni. Arxeologik yodgorlik va undagi moddiy topilmalar xronologiyasi va arxeologik davrlashtirish. Radiokarbon usuli va uni qo‘llash shart-sharoitlari. Arxeologiya fanida nisbiy davrlashtirish. O‘rta Osiyoning ashel davri yodgorliklari va ularning arxeologik o‘rganilishi. Qo‘turbuloq yodgorligi moddiy manbalari. Ko‘lbuloq makoni tosh qurollarining texnikasi va texnologiyasi. Arxeologik stratigrafiya. Mahalliy o‘lkashunoslar faoliyati va ularning o‘zbek arxeologiyasidagi o‘rni. Turkiston to‘plami va A.Kun faoliyati. O‘rta Osiyoning so‘ngi paleolit davriga oid yodgorliklari. Dastlabki arxeologik tadqiqotlar. Joytun madaniyatining arxeologik o‘rganilishi.

Qadimgi topilmalar haqidagi dastlabki tasavvurlar (yirik hayvonlarning suyak qoldiqlari, “momaqaldiraq bolta”, “samoviy bolta”). Arxeologiya atamasining paydo bo‘lishi va dastlabki qadamlari (“arxeologiya”, Platon, Nabonid, Gerodot, Lukretsiy Kar). Tosh davri xususiyatlari. Bronza va temir davrlari xususiyatlari. O‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi qabilalarning tarqalishi. O‘lkamizdagi qadimgi va O‘rta asrlar davri shaharlari va me‘moriy obidalari. O‘zbekistonda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari va ularning asosiy natijalari. Antropologiya va etnologiya fanlari va tadqiqot obyektlari. Eng qadimgi odam (Selung‘ur, Teshiktosh, Samarqand topilmalari). O‘zbekiston hududida zamonaviy odamlarning paydo bo‘lishi va voha bo‘ylab tarqalishi. Neolit, eneolit va bronza davrlari dehqonchilik va chorvador qabilalari. Markaziy Osiyo moddiy madaniyat yodgorliklari haqida ma‘lumot bering (Selung‘ur, Ko‘lbuloq, Qizilqum, Teshiktosh). Arxeologlar xonasidagi bajarilgan ishlar (laboratoriya, rekonstruktsiya, restavratsiya, arxeologik hisobot). Arxeologik tadqiqot (Arxeologik Dala qo‘mitasi, xat, asosnoma, ruxsatnoma). Arxeologiyaning tarmoq fanlari (gumanitar fanlar, tabiiy fanlar, aniq fanlar). Arxeologiya va gumanitar fanlar (tarix, tarixiy geografiya, epigrafika, numizmatika, etnografiya, toponimika). Arxeologiya va aniq fanlar (geografiya, matematika, geometriya, axborot texnologiyalari, arxitektura, fizika). Arxeologiya va tabiiy fanlar (biologiya, paleobotanika, paleozoologiya, kimyo). O‘zbekistonda arxeologik tadqiqot o‘tkazish tartibi (O‘zb Res FA Arxeologiya instituti, Arxeologiya dala qo‘mitasi, xat, asosnoma, ruxsatnoma). O‘zbekistonda xalqaro arxeologik tadqiqot o‘tkazish tartibi (Yunosko, shartnoma, majburiyatlar). Arxeologiya va etnologiya fanlarining o‘zaro aloqasi (Mekluxo Maklay, arxeologiya, etnologiya).

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilanbirga quramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Djurakulova D.M. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Darslik. SamDU-2020
5. Xolmatov N.U. O'rta Osiyo arxeologiyasi: tosh, eneolit va bronza SamDU-2024.
6. Djurakulova D.M. Abriyev R.B. Arxeologiya. o'quv qo'llanma. SamDU-2024.
7. Археология Археология Зарубежной Азии. – М., «Высшая школа», 1986
8. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
9. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи. – Тошкент, 2009.
10. Беленицкий А.М. Бентович И.Б, Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973.
11. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т., 1982.
12. Древнейшие государства Кавказа и Средняя Азия в раннем железном веке. Средняя Азия в античную эпоху Археология СССР с древнейших времен до средневековья Отв.ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.
13. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра Отв.ред. д.и.н. Ю.Ф.Буряков. – Т., 1990.
14. Кабиров Ж. Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т., 1990.
15. Мартынов А.И. Археология. – М., 2000
16. Средняя Азия в раннем средневековье. – М., 1999.
17. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э. – VII в. н.э. Самарканд. – Ташкент., 2000.
18. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М., 1962.

19. Филанович М. И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. – Т., 1983.
20. Эгамбердиева Н.А. Археология. – Тошкент, 2011.
21. Жил Маккой. Геообработка в ArcGIS. 2004 г.
22. Ронда Паф, Бооз и др. Редактирование в ArcMap. 2004 г.
23. Жонатан Бэйли, Симон Ву и др. Arc Catalog руководство пользователя. 2004 г.
24. GIS for Archaeology. 2009. ESRI.COM
25. Conolly, J. and Lake, M. 2006. Geographical Information Systems in archaeology. Cambridge: Cambridge University Press.
26. Paul Goldberg and Richard I. Macphail. Practical and theoretical geoarchaeology. Blackwell publishing. 2006.
27. Charles French. Geoarchaeology in action: studies in soil micromorphology and landscape evolution. Routledge. 2003.
28. Umberto Albarella. Environmental Archaeology: Meaning and Purpose. Springer-Science+Business Media, B.Y. 2001.
29. Чиникулов Х., Жўлиев А.Х. Умумий геология. – Тошкент, 2011.
30. Федоров-Давыдов Г.А. Монеты – свидетели прошлого. – М., 1982.
31. Ртвеладзе Е.В. Древние монеты Средней Азии. – Т., 1978.
32. Тухтиев И. Тангалар тилга кирганда. – Т., 1989.
33. Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии. – М., 1983.
34. Ерназаров Т. Тангалар ўтмиш даракчилари. – Т., Фан, 1977.
35. Бабаяров Г. Древние тюрские монеты Чачского оазиса (VI-VIII вв. н.е.). – Т., 2007.
36. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., «Высшая школа» 1989.
37. Археология. Под. ред. В.Л. Янина. – М., «Изд. МГУ», 2006.
38. Мартынов А.И. Археология. – М., «Высшая школа» 2006.
39. Археология Зарубежной Азии. – М., «Высшая школа» 1986.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100